

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TA'LIM TARBIYASIGA ODOB-AXLOQ QOIDALARINING O'RNI

M.Z.Fayzullayeva

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi. Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12597219>

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasiga odob-axloq qoidalarining o'rni va ularning ahamiyati masalalari yoritib berilgan. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Tayanch so'z va iboralar: Maktabgacha ta'lim, ta'lim va tarbiya, odob-axloq, ma'naviy tarbiya, ma'naviy va axloqiy yuksak qadriyatlar, madaniy – gigenik ko'nikmalar, mustaqillikni namoyon qila bilish.

ETIQUETTE FOR THE EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN THE PLACE OF THE RULES

Abstract. This article describes the role of etiquette and their importance in the education of preschool children. Reasonable opinions and comments are mentioned throughout the article.

Key words and phrases: Pre-school education, education and upbringing, manners, moral education, high spiritual and moral values, cultural-hygienic skills, ability to show independence.

ЭТИКЕТ ПРИ ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА МЕСТО ПРАВИЛ

Аннотация В данной статье описывается роль правил этикета и их значение в воспитании детей дошкольного возраста. Аргументированные мнения и комментарии упоминаются на протяжении всей статьи.

Ключевые слова и фразы: Дошкольное образование, образование и воспитание, нравы, нравственное воспитание, высокие духовно-нравственные ценности, культурно-гигиенические навыки, умение проявлять самостоятельность.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-sonli "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasiga mas'ul kishilar zimmasiga maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasini yuklaydi. Zero, jamiyat taraqqiyotida eng avvalo uning kelajagi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama sog'lom va ilimli, o'z yurtini sevadigan, ota-bobolarining ma'naviy va axloqiy yuksak qadriyatlarini e'zozlaydigan qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda odob va axloq tarbiyasi ma'naviy va ma'rifiy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida uning umumiy boshlang'ich tarbiya masalalariga muvofiq ravishda olib boriladi. Zero, maktabgacha yoshda shakllanadigan dastlabki ma'naviy ong, his-tuyg'u va axloq butun bolalik faoliyatiga, o'zoro hamda kattalar bilan bo'ladigan munosabatga u yoki bu tarzda

ta'sir etadi. Shunga ko'ra bolalarda olib boriladigan odob va ahloqqa oid dastlabki tasavvurlar bevosita faoliyat jarayonida oila hamkorligida berilishi va unda quyidagilar hisobga olinishi zarur:

-bolalarning ilk yoshidan boshlab, ularga o'zbek xalqining milliy urf-odatlarini, an'analarini va insoniy xislatlarini asosida tarbiya berish;

- Madaniy – gigienik ko'nikmalarni egallash va o'z-o'ziga xizmat qilish asosida tarbiya berish.

Tarbiya aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lib bolalarning ijobiy-ruhiy kechinmalari, his-tuyg'ularini uyg'unlashtirish asosida insonparvarlik, mehribonlik, himmatlilik, o'zaro g'amxo'rlik, o'rtoqlik, o'zaro yordam, o'z faoliyatini mustaqil ravishda idora etish, kattalar topshirig'ini bajarish, mustaqillikni namoyon qila bilish, batartiblik kabi his tuyg'ular hisobga olinadi.

Bolalikdan madaniy – gigienik ko'nikmalarni singdirib borish inson salomatligini ta'minlaydi. Bolalarni mustaqil ravishda yuvinishga, qo'llarning tozaligiga rioya qilishga, tishlarni to'g'ri tozalab, taranish, dastro'moldan foydalanishga, ovqatdan so'ng og'izni chayishga o'rgatilib boriladi.

Bolalarda mustaqillikni namoyon qila bilish: batartiblik, hamisha chiroyli ko'rinishga ega bo'lish ishtiyoqi, kiyimlarni tartibli ravishda yechib, ularni joyiga osib qo'yish, o'ng va chap oyoq poyafzallarini farqlay bilish, ularni to'g'ri kiyish, ko'zguga qarab kiyimlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish, dastro'moldan to'g'ri foydalana olish, xonada tartib va ozodalikni saqlash, kiyimlarni toza va tartibli kiyishga odatlanishni tarbiyalash.

Bolalarga o'ziga xos gigiena: shamollatilgan xonada toza o'rin – ko'rpada uxlash, ertalab badantarbiya mashqlarini bajarish, suv muolajalari bilan mustaqil shug'ullanish, ichaklarni va qovuqni o'z vaqtida bo'shatib, hojatxonadan batartib ravishda foydalanish, burunni toza saqlash, qo'l, oyoq va badan uchun foydalaniladigan sochiqlarni farqlash, toza dastro'molchadan foydalanishga o'rgatish.

O'zbek xalq ertaklari, xalq pedagogikasining xazinasidir. Ertaklarning bosh qahramonlari namunasida bolalarga o'z o'lkasi, uyi, ota-onasiga muhabbat singdiriladi, yaqin kishilarga nisbatan mehr-muhabbat, oqko'ngillik, ezgulik tarbiyalanadi. Shuningdek, ertaklar qahramonlari namunalari orqali bolalarda ezgulik, to'g'rilik, kamtarlik kabi tasavvurlar rivojlanadi. Bu manbalar asrlar mobaynida bolalarda eng yaxshi fazilatlarini tarbiyalaydi va shakllantiradi.

Misol tariqasida bir nechta asarlarni tahlil qilaylik. Bolalar yozuvchisi Dilfuza Kamoljonovanning "Quloqsiz filcha" ertagida onasining gapiga kirmaydigan to'palonchi filcha haqida hikoya qilinadi. Garchi quloqlari supradek kelsa-da, ammo bu quloqlarga gap kirmaydigan filcha onasiga bildirmasdan uydan qochib ketadi. Favvorada kechgacha shataloq otib, bolalarga suv purkab, kasal bo'lib qoladi. Ertakni o'qigan bolalar kattalarning gapiga quloq tutish kerakligi, aks holda qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini bilib olishadi.

Zamira Ibrohimovanning "Urishqoq gul va bola" asari alohida ajralib turadi. Asar kompozitsiyasi hikoya ichida ertak shaklida qurilgan. Unda "keyingi paytlarda o'zgarib qolgan, qulog'iga gap kirmaydigan, o'rtoqlari bilan chiqisha olmaydigan" Aziz obrazi ishonarli gavdalantirilgan.

Ma'lumki, bolalar kitoblarida yosh qahramonlar bilan kattalarning o'zaro munosabati muhim ahamiyatga ega. Bu asarda ham Azizning salbiy tomonga o'zgarayotgani ota-onasini tashvishlantiradi. Yozuvchi hikoya-ertakda ona obrazini gavdalantirishda o'ziga xos usulni qo'llagan. Ona farzandida paydo bo'layotgan salbiy xususiyatlarni dildan suhbatlashish, do'stlik, o'rtoqlik, ahilchilik haqidagi ibratli ertakni so'zlash, tarbiya usullarini donolik bilan qo'llash orqali bola xulqiga ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Unga urishqoq gul ertagi misolida o'rtoqlarini mensimay, ulardan o'zini katta tutgan, dimog'dor gulning boshiga tushgan voqeani so'zlab beradi. Shunisi diqqatga sazovorki, muallif ertagida shunchaki, oddiy tarzda o'rtoqlardan ajralib, yolg'iz qolish, juda og'ir, yomon degan quruq didaktik fikrni aytmaydi. Balki yolg'izlik va ko'pchilikni bir-biri bilan qiyosiy tasvirlaydi. Boqqa kirgan shamol avval ko'p gullardan birini olib ketishni mo'ljallaydi va ularning yoniga shovullab, baqirib chaqirib boradi. Ammo gullar qo'rqmaydilar, "dadil turib, bir-birlarini mahkam ushlab, g'uj bo'lib olishadi". Shamol birorta gulni olib ketolmaydi. Yolg'iz yurgan urishqoq gul esa shamolni ko'rib qo'rqib ketadi. Undan qutilish, omon qolish uchun qanchalik qattiq qiynaladi, barglaridan ayrilib ojizlanadi, o'rtoqlariga muhtoj bo'ladi. Ertakda bog'dagi gullar yoniga bosh egib kelgan urishqoq gul holati shunday tasvirlanadi: "Ranglari oqarib, hansirab qolgan gulni ko'rgan o'rtoqlari uni darrov o'rtaga olib, mehribonchilik ko'rsatishibdi. Shunda haligi gul yig'lab yuboribdi.

– Meni kechiringlar. Endi hech qachon, hech kim bilan urishmayman, – debdi astoydil”.

Onasi aytgan ertakdan ta'sirlangan bola tushida o'zini urishqoq gul qiyofasida ko'radi. Yolg'izlikning yomonligini his qilib, nima qilishni bilolmay ruhan tushkunlikka tushadi. Muallif hikoyada ishtirok etgan Ona tabiatidagi samimiylilikni, bolasini tushinib, unga mehr ko'rsatishi, qo'llab-quvvatlashini yorqin chizgilarda ko'rsata olgan.

Xulosa qilinganda, bolalarni ma'naviy tarbiyalashda asrlar bo'yi e'zozlanib kelingan adabiy manbalardan foydalanish, non va suvni muqaddas deb bilish, uni isrof qilmaslik, pazandalikka qiziqish, tozalikka rioya qilish kabi bolalarda eng yaxshi xislatlarni tarkib toptirish xalq pedagogikasining asosi sifatida har bir mashg'ulot tarbiya jarayonining negizini tashkil etishi kerak.

“Odob axloq tarbiyasi” yo‘nalishidagi mavzular

№	Mavzular
1.	Odob salomdan boshlanadi
2.	Ota-onaga hurmat
3.	Bizning oila
4.	Buvi-buvijonlarimiz
5.	Aka-uka, opa-singillarga hurmat
6.	Qiz bolalarga xos fazilatlar
7.	O'g'il bolalarga xos fazilatlar
8.	Mehnatsevarlik
9.	Ota-onamga yordamchiman
10.	Dasturxon odobi

11.	Shirinso‘z bo‘lish
12.	Mehmonga borish odobi
13.	Mehmon kutish odobi
14.	Navro‘z bayrami
15.	Hashar
16.	9-may- Xotira va Qadrlash kuni
17.	Tejamkorlik- yaxshi odat
18.	Suv muqaddasdir
19.	Ozodalik-orastalik
20.	Oilaviy tadbirkorlik
21.	Kitob bizning do‘stimiz

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdaqi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. – T., 2020.
2. Grosheva I.V, Yevstafeva L.G, Maxmudova D.T, Nabixanova sh.B, Pak S.V, Nazarova V.A, Isxakova M.R, Abdunazarova N.F. "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) – T:2022
3. Fayzullaeva M.Z., N.T.Jo‘raeva “Men va mening oilam” – T:2022